

**«SMART BANK» AKSIYADORLIK JAMIYATI  
YAGONA AKSIYADORINING  
QARORIDAN KO‘CHIRMA**

2024 yil «14» fevral

№ 02/1

Toshkent sh.

**Bank ustav kapitalini qo‘sishimcha aksiyalar chiqarish  
yo‘li bilan oshirish to‘g‘risida**

...  
...  
...

O‘zbekiston Respublikasi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuniga kiritilgan o‘zgartirishlarga ko‘ra, bank ustav kapitalining eng kam miqdori 2024 yil 1 apreldan 350 000 000 000 (Uch yuz ellik milliard) so‘mni tashkil etishi lozimligi belgilanganligi sababli Bank tomonidan ustav kapitali miqdorini 150 000 000 000 (Bir yuz ellik milliard) so‘mga oshirish lozim.

Bank Kuzatuv kengashining “Bank ustav kapitalini qo‘sishimcha aksiyalar chiqarish yo‘li bilan oshirish yuzasidan Yagona aksiyadorga taklif kiritish to‘g‘risida”gi 2024 yil 6 fevraldagи 06-02/1-sonli qaroriga muvofiq Bank operatsiyalari hajmini ko‘paytirish orqali moliya bozorda o‘z mavqeini va rolini oshirish hamda Bank foydasini ko‘paytirish maqsadida Bank ustav kapitali miqdorini 150 000 000 000 (Bir yuz ellik milliard) so‘mga oshirish to‘g‘risida Yagona aksiyadorga taklif kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Aksiyadorlik jamiyatları va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonunlari, Qimmatli qog‘ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish qoidalari (ro‘yxat raqami 2000, 30.08.2009 yil), Bank Ustavi va “Yagona aksiyadori to‘g‘risidagi nizom” talablaridan kelib chiqib, Yagona aksiyador

**qaror qiladi:**

1. Bankning umumiy qiymati 150 000 000 000 (Bir yuz ellik milliard) so‘mlik nominal qiymati 1 000 (Bir ming) so‘m bo‘lgan 150 000 000 (Bir yuz ellik million) dona qo‘sishimcha oddiy aksiyalari chiqarilsin.

Aksiyalar yopiq obuna orqali yagona aksiyador “Leader Finance” mas’uliyati cheklangan jamiyatiga 1 000 so‘mdan, mazkur chiqarilishdagi aksiyalar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan boshlab bir yil ichida birjadan tashqari uyushmagan qimmatli qog‘ozlar bozorida oldi-sotdi bitimni ro‘yxatdan o‘tkazish yo‘li bilan joylashtirilsin.

Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarga to‘lov jamiyatning bank hisob raqamiga milliy valyutada naqdsiz shakldagi pul mablag‘lari o‘tkazish yo‘li orqali amalga oshirilsin.

Ushbu aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb topilgan taqdirda aksiyalar uchun

qabul qilingan to‘lov vositalari qonunchilikda belgilangan tartibda 10 kun ichida qaytarilsin.

2. “Smart bank” aksiyadorlik jamiyatining qo‘sishimcha aksiyalar chiqarilishi to‘g‘risidagi qarori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. “Smart bank” aksiyadorlik jamiyati Boshqaruvi (A.To‘rayev)ga qo‘sishimcha aksiyalar chiqarilishini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va joylashtirish bilan bog‘liq zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

4. Ushbu qarorning ijrosi yuzasidan nazorat “Smart bank” aksiyadorlik jamiyati Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilsin.

**Yagona aksiyador nomidan,**

“Leader Finance” MCHJ

Bosh direktori v.b.:

/imzo, muhr/

J.Xaydarov

Ko ‘chirma asligi to ‘g ‘ri:



T.Nurmuratov

M.O.